

Annotatsiya: Ushbu maqolada lokal tarmoqni sozlash, ularni dasturiy qismi matematik moduli haqida yoritib o'tilgan. Bir to'g'ri chiziqda joylashgan kompyuterlarda tarmoq hosil qilish ni bir nechta qadamlarining matematik modeli yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nuqta, masofa, minimal, maksimal, yig'indi, chiziq, to'g'ri chiziq.

Annotation: This article describes the configuration of a local network, the software part of which is a mathematical module. Mathematical model of several stages of network formation on computers located in a straight line is explained.

Key words: Point, distance, minimum, maximum, sum, line, straight line.

Аннотация: В данной статье описана настройка локальной сети, программная часть которой представляет собой математический модуль. Объяснена математическая модель нескольких этапов формирования сети на компьютерах, расположенных прямолинейно.

Ключевые слова: Точка, расстояние, минимум, максимум, сумма, линия, прямая.

Lokal tarmoqni sozlashda matematik dasturlash masalalari qo'llanishi juda muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar, ayniqsa tarmoqning samarali ishlab chiqarishni taminlash va turli xil resurslarni optimal taqsimlash uchun zarur bo'ladi.

Lokal tarmoqni loyihalashtirishda matematik dasturlash usullarini qo'llash samarali va optimal tizim yaratishga yordam beradi. Quyida matematik dasturlash usullari va ulardan lokal tarmoqlarni loyihalashtirishda foydalanishning qiziqarli jihatlarini ko'rib chiqamiz:[1. B. 560]

Matematika Dasturlash Usullari

Chizikli dasturlash: Bu usulda maqsad chizikli cheklovlar va tenglamalar orqali ifodalanadi. Masalan, resurslarni optimal taqsimlash muammosini hal qilishda foydalaniladi.

Qo'llanishi: Tarmoqning trafik oqimini boshqarish, tarmoq resurslarini optimal taqsimlash.

Dinamik dasturlash: Bu usulda muammo kichik qadamlar orqali yechiladi, har bir qadam oldingi qadamning natijalariga asoslanadi.

Qo'llanishi: Tarmoqlarni qayta marshrutlash, optimal yo'nalishlarni aniqlash.

Butun sonli dasturlash: Bu usulda barcha o'zgaruvchilar butun sonli qiymatlar oladi, ya'ni aniq birliklar bilan ishlanadi.


Qo'llanishi: Kompyuter tarmog'ida tugunlarni joylashtirish va resurslarni taqsimlash.

Tarmoqlar nazariyasi: Tarmoqlardagi tugunlar va qirralarni optimallashtirish uchun ishlatiladi.


Qo'llanishi: Tarmoq topologiyasini aniqlash, eng qisqa yo'nalishlarni topish.

Lokal Tarmoqlarni Loyihalashtirish

Adobe Photoshop dasturida uch o'lchamli fazodagi akvarium tasviri quyidagi holda yaratildi. Ko'rinib turibdi natija aniq, sifatli natijaga erishdik. Boshqa dasturlardan farqi o'rganish oson. Vaqt kam sarflanadi.



Akvariumning chap tarafidan ham qo'shimcha aks ob'ektlarini yarating



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidova M., Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Durdona nashriyoti Buxoro. 2022
2. Atul P. Godse. Multimedia Technologies. Technical Publications, 1 dek. 2020 г
3. Жук Ю.А. Мультимедийные технологии: учебное пособие: самот. учеб. электрон. изд. / Ю. А. Жук ; Сыкт. лесн. ин-т. – Сыктывкар, 2012. -271 с.


LOKAL TARMOQNI LOYHALASHTIRISHDA MATEMATIK DASTURLASH MASALALARINI QO'LLASH

Usmanjanova Nigora Shuxratali qizi
Namangan davlat universiteti "Raqamli ta'lim texnologiyalari" kafedراسي
o'qituvchisi


Axmedov Asliddinxon Komilxon o'g'li
Namangan davlat universiteti "Amaliy matematika" yo'nalishi 2-kurs
talabasi

Najmiddinov Ahliddin Sirojiddin o'g'li
American University of Technology universiteti 1-kurs "Software
engineering" yo'nalishi

14. [Elliptical Marquee] aslahasi yordamida akvarium sohasini taxminan belgilab, [Filter-Distort-Spherize] oynachasiga kirib, berilmalarini o'rnatib [Ok] tugmachasini bosib.




Bir necha marta filtrni [Ctrl-F] tugmalari yordamida tadbiq qiling.




[Ctrl] tugmasini bosib turib "MASTER" qavatiga sichqoncha bilan cherting, keyin [Ctrl-Shift-I] yordamida qolgan qismini belgilab, kerak bo'lmas chiziqlarni o'chiring.

"PIXEL STRETCH" qavatiga maska qoshib, gradient yordamida yarim shafoflikni taminlang, chunki aks chiziqlar ob'ekt chekkasida aniqroq bo'lishi




kerak.

[Pen] aslahasi yordamida, [Path] usulida akvariumda yana bir nurli aks holati uchun soha yarating.




XULOSA


tasvirlangan. Shu jumladan bu dastur boshqa dasturlardan farqi boshlang'ich holatdan boshlab amalga oshiriladi. Dasturda uch o'lchovli fazodagi chizmalarni shu dasturda amalda qo'llanilmoqda. Programmadagi tasvir aniq PIXEL STRETCH shu holatda ko'rishimiz mumkin.




11. Yangi "WATER" qavatini hosil qilib, uni oq rang bilan to'ldiring va aralashish turini "Overlay" hamda "Opasity" holatini 40% -ga o'rning.



12. WATER qavati ustidan yangi PIXEL STRETCH qavatini yaratib, 10-15 piksellli aniq chegarali moy qalam bilan bir necha chiziq va nuqtalar hosil qiling.




13. To'rtburchak belgilash aslahasi yordamida nuqta, chiziqlarni belgilab, [Ctrl-T] tugmalar yordamida "Free Transform" hoatiga o'tib, akvarium bo'yi bo'yicha pastga torting.




NATIJARLAR


359




[Layers] oynachasini pastki qismiga tortib, “MASTER” qavatidan [Inner Shadow] usulini o’chiring. “MASTER CLIP” qavatini faollashtirib, [Ctrl – T] tugmasini bosib, “FreeTransform” holatiga o’ting. [Alt] tugmasini bosib turgan holda tepadagi o’rta nuqtasini yuqoriga torting.



9. “MASTER CLIP” qavatini faollashtirib, [Ctrl - G] tugmalarini bosib, aralashish usulini “Overlay” va “Opacity” berilmasini 70% qiling.




10. Akvariumda suv ko’rinishini yasash uchun [Pen] aslahasini tanlab, akvarium tepa qismida suv satxini chizing:




[Path] oynachaga o’tib, [Work Path] qavati faolligida oynachaning pastki qismidagi [Load Path as selection] tugmachasiga cherting va yo’lagni belgilangan holatiga ot’kazing. [Layers] oynachasiga o’tib, [Ctrl-Alt-Shift] tugmalarini bosib turgan holda “MASTER” qavatiga sichqoncha bilan cherting.

MUHOKAMA


Adobe Photoshop dasturida uch o’lchamli fazodagi akvarium tasvirini yaratish bo’yicha Makromedia flash va boshqa dasturlarda turli xil




Nihoyat qavatga “MASTER” nomini bering, chunki bu – asosiy ishchi qavat bo’ladi.



7. “MASTER” qavatiga ikki marta chertib, [Layers Style] oynachasida [Inner Shadow] usulini tanlab, quydagicha berilmalarini o’rninging:




8. “MASTER” qavatini aralashish turini [Multiply] qiling.




[Ctrl-J] tugmalari yordamida “MASTER” qavatidan nusxa olib, unga “MASTER CLIP” nomini bering.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Adobe Photoshop dasturida uch o’lchamli fazodagi akvarium tasvirini yaratish bo’yicha Saidova M., Ta’limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Durdon nashriyoti Buxoro. 2022 yildagi kitobda boshqa dasturda yoritilgan. Ushbu maqolada Adobe Photoshop dasturi bosqichma-bosqich qatlam asosida akvarium hosil qilindi. Yuqoridagi kitobdan kerakli ma’lumotlarni olib shu asosida dasturdan akvarium hosil qildim.




4. Yana [Ellipse] aslahasi yordamida, faqat [Intersect Shape Areas] holatini tanlab, 1300X600 nuqtali shaklni hosil qiling.



5. [Path Selection] aslahasi yordamida katta ellipse shaklini belgilang.



[Add Anchor Point] aslahasi yordamida akvarium chekkasiga nuqta hosil qiling.



6. Direction Selection aslahasi yordamida akvarium chekkasini yumalaqsimon qiling.
Yuqorida bayon qilingan amalni akvariumni boshqa qirralariga ham tadbiiq qiling.

ADOBE PHOTOSHOP DASTURIDA UCH O'LCHAMLI FAZODAGI AKVARIUM TASVIRINI YARATISH

Nastinov Sadriddin Tojiddin o'g'li
Namangan davlat universiteti
Raqamli ta'lim texnologiyalari kafedrası: o'qituvchisi
E-mail: nastinovsadriddin290895@gmail.com
Namangan davlat universiteti
Fizika-matematika fakulteti 2-bosqich
Amaliy matematika talabasi
Muhammadiev Jahongirxon Mahmudxon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Adobe Photoshop dasturi uch o'lichamli fazodagi akvarium tasviri yoritilgan. Dasturda har bir qatlamda alohida layer qismlarga qaratilgan. Yangi 1600X1200 nuqtada yaratib olamiz. Akvarium tasviri qulay oson, Shar shaklga chizma chizib olishimiz lozim.

Kalit so'zlar: Adobe Photoshop, Shape layers, Intersect Shape Areas, Path Selection, Add Anchor Point, Layers Style.

Аннотация: В данной статье описано изображение аквариума в трехмерном пространстве с помощью программы Adobe Photoshop. В программе каждый слой ориентирован на отдельные части слоя. Мы создадим новый размером 1600X1200 пикселей. Изображение аквариума удобное и простое, нам нужно нарисовать рисунок в форме сферы.

Ключевые слова: Adobe Photoshop, слои фигур, пересекающиеся области фигур, выбор пути, добавление опорной точки, стиль слоев.


Abstract: This article describes the image of an aquarium in three-dimensional space using Adobe Photoshop. In the program, each layer is focused on separate layer parts. We will create a new one in 1600X1200 pixels. The image of the aquarium is convenient and easy, we need to draw a drawing in the shape of a sphere.

Keywords: Adobe Photoshop, Shape layers, Intersect Shape Areas, Path Selection, Add Anchor Point, Layers Style.

KIRISH

Yangi 1600X1200 nuqtaga hujjat yarating.

1. Ikki marta Background qavatiga chertib, qulf holatidan xalos bo'ling.
2. Quyida kursatilgan gradiyentni hosil qilib, hujjatga quyung.



3. Hujjatning oldi rangini oq qilib, [Ellipse] aslahasini [Shape layers] holatida tanlab, 675X700 nuqtali shakl chizing.

Bunday misollarni fizikaning har bir bo'limi uchun ko'plab keltirish mumkin.

Fizikadan ba'zi amaliy mashg'ulotlar ishbilarmonlik o'yini shaklida o'tkazilishi mumkin, masalan, ijodiy dizayn ishlarini bajarish ("Qarshilik sinovi", "Insoniyatning energiya muammolari va ularni quyosh energiyasi misolida hal qilish yo'llari" va boshqalar). Bunda o'quvchilarning mustaqil ishi individual yoki guruh bo'lishi mumkin. O'z loyihasini jamoatchilik muhokamasi va himoyasi o'quvchilarning mustaqil ishlarining rolini oshiradi va uni sifatli amalga oshirish istagini kuchaytiradi.

Fizika bo'yicha ijodiy loyihalar talabalarning bilim faolligini maksimal darajada oshirishga imkon beradi, ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash, hujjatlar bilan ishlash, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va birlashtirish qobiliyatini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA

Shunday qilib, loyihalarga asoslangan ta'lim va fanlararo yondoshuvlar - talabalarning fizikani o'rganishga qiziqishini oshirishning va kelajakda kasbiy yo'nalishlarining qiziqishlarga asoslangan holda aniq tahlalashining samarali usullaridan biridir. Loyiha usuli mustaqil ravishda ham, boshqa pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda ham qo'llanilishi mumkin, uni kompleks qo'llash talabalarning fizikani o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil tadqiqot ishlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, o'quv jarayonini yetarlicha individuallashtirish va uni iloji boricha talabalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Muhimi fizika fanining mustaqil ta'limida uni boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirilgan holda kichik loyihalar uchun mavzularni o'quv dasturlari uchun tanlay bilish- talabalarga murakkab bo'lgan fizik qonuniyatlarni tushunishga qiziqtirish va ularni chuqurroq "o'rganishni o'rgatish" imkonini beradi.

Adabiyotlar:

[1] Shklyar N.V. Hududiy oliy o'quv yurtlarida psixologik-pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. //Rossiyada oliy ta'lim. 2015 yil, 3-son, 120-127.

[2] Gutman V.V., Shklyar N.V. Mustaqil ta'lim faoliyati talabalarning kasbiy-pedagogik vakolatlarini rivojlantirish sharti sifatida. Kareliya ilmiy jurnali. 2016.T.5, №1(14), 18-21b.

[3] Talabalarning fizika fanidan mustaqil ishi: Ulyanovsk davlat texnika universiteti talabalari uchun ko'rsatmalar / E. R. Riger, Yu R. Gilmanov, R. K. Luks, V. V. Efimov. – Ulyanovsk: Ulyanovsk davlat texnika universiteti, 2008. – 38 b.

[4] Tropin, V. V. "Fizika" fanini o'rganishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo'yicha amaliy qo'llanma: kunduzgi va sirtqi bo'lim talabalari uchun uslubiy ishlanma / V. V. Tropin, V. V. Fomin, T. P. Kolesnikova, O. N. Raznovan, L. A. Daibova. – Krasnodar, 2006. – 53 b.

-talabalarning bir-birlarini qo'llab-quvvatlashi va o'rganishni rivojlantirishiga yordam beruvchi kichik guruhlarda ishlash;

-mustaqillik, ishtirok etish va o'zaro muloqotni rag'batlantiruvchi baholash tizimidan foydalanish;

-qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, qat'iyatlilik va chidamlilikni rivojlantirishga uchun talabalarga yordam beruvchi o'sish tafakkuri mashg'ulotlari kitobini yuritish .

Fizika eng qiyin fanlardan biridir, chunki u matematikani yaxshi bilishni, laboratoriya ko'nikmalarini va fizikaviy jarayonlarni kuzatish uchun o'z qo'llari bilan tajribalar o'tkazish qobiliyatini talab qiladi. Ammo fizika ham loyihalar yordamida o'rganish uchun juda yaxshi fan! Fizikani o'qitishda mustaqil ta'limni shakllantirish fanlararo yondashuvlarni va loyihaga asoslangan ta'limni o'z ichiga olishi, mustaqil ta'lim mavzulari ancha dolzarb va qiziqarli bo'lishiga erishiladi va talabalarga kelajak rejalari uchun yetarli motivatsiyalar beradi. Nazariy bilimlarning bunday real dunyoda qo'llanilishi fizikani muhandislik yoki atrof-muhit loyihalari bilan birlashtirish orqali ko'rsatilishi mumkin. Ushbu strategiya nafaqat qiziqish uyg'otadi, balki tahlil qilish va muammolarni hal qilishga undaydi.

Fanlararo aloqalar bo'yicha ko'plab mavzularni - fizika (energiya, energiya transporti, elektromagnit nurlanish), geografiya (atrof-muhit, gidrologik sikl), kimyo (fotosintez), biologiya (o'simliklar va biomassa), geologiya (suv, mineral resurlar qidiruvi), axborot kommunikatsiya texnologiyasi - quvvat nuqtasi taqdimoti kabi misollarni keltirish mumkin.

Dolzarb mavzulardan : quyosh radiatsiyasi - energiyasidan foydalanish, shamol - quyosh energiyasining o'zgarishi, biomassa – tushunchalari va undan foydalanishning dunyo tajribalari kabi mavzularni; shuningdek fizikaviy materialshunoslikning ko'plab qiziqarli ob'yektlarini shunday tanlay bilish kerakki, tanlangan tadqiqot ob'yekti uning foydalanish va qo'llanilish sohalariga ko'ra talabalarda chuqur o'rganishga qiziqishlar uyg'otsin , chunki hayotimizning har bir sohasini yaratilayotgan yangi materiallarsiz va texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Hozirgi umumiy fizika kursi o'quv dasturi mustaqil ta'lim mavzularidan biri bo'lgan “Atmosferadagi issiqlik muvozanati o'zgarishining sayyora iqlimiga ta'siri, parnik effekti” ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bu mavzu bo'yicha talaba ma'lumotlar resurslari bilan tanisha boshlar ekan, izlanishlar orqali juda ko'plab ma'lumotlarni, xususan “iqlim o'zgarishlariga adaptatsiya” degan tushunchalar bilan tanishadi, ekologiya o'zgarishlarini fizikaga bog'liqlik jihatdan qarab chiqadi.

Hozirgi kunning yana bir dolzarb mavzularidan biri “Shamol generatori – muqobil energiya manbai: ishlab chiqish va tadqiqot” ishi talabalar uchun juda ham qiziqish uyg'otib, fizika va energetika sohasiga uyg'unlashgan tadqiqotlar o'tkazishga boshlaydi, fanning bu sohaga tegishli bo'limi bo'yicha bilimlarini kengaytiradi.

kerakki, ta'lim faoliyati talaba tomonidan oddiygina qabul qilinmasdan, balki uning tashabbusi bilan amalga oshiriladi, bu mustaqil o'quv faoliyati jarayonida mumkin bo'ladi [1].

Mustaqil ta'limning asosiy vazifasi - ta'lim faoliyatini mustaqil amalga oshirish uchun bilim, ko'nikmalarni, keyinchalik esa kelajakdagi kasbiy faoliyat ko'nikmalarni, kelajak maqsadlarni belgilash va ularga erishish qobiliyatini shakllantirishdir [2].

Ko'plab pedagogik izlanishlarda talabalarning ta'lim darajasini doimiy ravishda oshirish muammosini tahlil qilish asosida ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashning asosiy vositalari, ularning dialektik munosabatlari ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishi o'z-o'zini tarbiyalashning paydo bo'lishining omili sifatida qaraladi, tashkil etilgan ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashning birligini ta'minlaydi [3].

Mustaqil ish har doim talabalar, ayniqsa, birinchi kurs talabalari uchun bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Asosiy qiyinchilik ishingizni mustaqil ravishda tashkil qilish zarurati bilan bog'liq. Ko'pgina birinchi kurs talabalari tahlil qilish, qayd qilish, asosiy manbalar bilan ishlash, o'z fikrlarini aniq ifodalash, vaqtni rejalashtirish, aqliy faoliyatining individual xususiyatlarini hisobga olish va boshqalar bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek fiziologik imkoniyatlar, mustaqil ishlashga psixologik tayyorlikning deyarli to'liq yo'qligi va uni tashkil etishning umumiy qoidalarini bilmaslik kabi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun ham o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda yordam berishdir. Talabalarning mustaqil ishi darsda ham, undan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Har qanday o'quv jarayoni kabi mustaqil ish quyidagi funktsiyalarni bajaradi: ta'limiy (bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ularni tizimlashtirish va mustahkamlash), rivojlantiruvchi (xotira, fikrlash, nutqni rivojlantirish), tarbiyaviy (o'quv faoliyati uchun barqaror motivlarni tarbiyalash, aqliy mehnat madaniyati, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalari, bir qator shaxsiy fazilatlar - mehnatsevarlik, o'ziga talabchanlik, mustaqillik va boshqalar) [3, 4].

Mustaqil ta'lim tizimi uchun hozirda jahonning ko'plab davlatlari tajribasida bir qancha strategiyalar qo'llaniladi. Ular:

- faol o'rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ochiq savollar berish;

- o'quv materiallari va mashg'ulotlarini talabalar uchun mustaqil tanlov imkoniyatini yaratish;

- notanish muammolar ustida ishlash malakasini shakllantirish ya'ni fikrlash jarayonlarini modellashtirish;

- talabalarga xatolarini tushunishi va yaxshilashi uchun fikr-mulohaza bildirish orqali konstruktiv tanqid;

- hamkorlikda va tartibli ish yuritish uchun ochiq muhitning yaratilishi;

- o'z ta'lim uslublari asosida talabalarga darslarni tashkil etishga imkoniyat yaratish va ko'rsatmalar berish;

требования создают проблемы определения содержания самостоятельной работы, ее видов, требований к заданиям, как по физики и по всем наукам.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, креативность, междисциплинарные подходы «учить обучаться», проектное обучение.

Ma'lumki malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ta'limning zamonaviy uslub, shakl va vositalari bilan bir qatorda hozirgi kunda mustaqil ta'lim muhim o'rin tutadi. Bu esa o'z navbatid oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ta'lim mazmunini rivojlantirish, uni tashkil etish va amalga oshirish uslublarini takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun eng asosiy strategiyalaridan biri bu aniq fanlarni xususan fizika fanini talabalarga qanday o'rganishni o'rgatishdir. "O'rganishni o'rgatish" prinsipini loyihaga asoslangan mustaqil ta'limda qo'llash juda samaralir.

Fanni o'rganishda o'z-o'zini rivojlantirish maksimal foyda keltirishi uchun axborot bilan to'g'ri ishlashni chuqur o'rganish muhimdir; ko'proq yangi narsalarni o'rganish kerakligini, shuningdek, yangi bilimlarni amaliyotda samarali qo'llashga nima yordam berishini tushunish zarur. Buning uchun talabalardan turli qiziqarli mavzularda taqdimotlar va reportajlar qilish talab qilinishi yuqori samara beradi. Gap shundaki, o'rganilayotgan materialni qayta ishlash va qayta aytib berish orqali talabalar uni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Talaba yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirib olishi, kerakli ma'lumotlarni izlashning qulay usul va vositalarini bilishi, manbalardan unumli foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunda an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, elektron o'quv adabiyotlari va ma'lumotlar banki bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish va bu jarayonda talaba o'z oldiga qo'yilgan vazifalarning oqilona yechimini topishi zarur. Albatta, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oya ustoz va talabalar jamoasida asoslanishi va himoya qilinishi kerak bo'ladi.

Ma'lumki talabalarining mustaqil ta'lim olishlari uchun o'quv rejasida ajratilgan vaqtga muvofiq, mustaqil ta'limning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda ishlab chiqiladi va kafedra majlislarida tasdiqlanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta'lim sohasida talabalarining ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishda, ularda kelajakda mustaqil faoliyat yurita bilish ko'nikmalarini uyg'otishda, bo'lajak mutaxassis sifatida o'z kasbiy mahoratini doimiy shakllantirishda mustaqil ta'limning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berishdir.

Mutaxassisning kasbiy rivojlanishi asosan tashqi ta'sirlar bilan belgilanishiga qaramay, shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy omili shaxsning o'zi bo'lib qoladi. Bu shuni anglatadiki, talaba universitetda o'qish jarayonida o'zi shakllanish sub'ektiga aylanishi kerak. Buning uchun ta'lim jarayoni shunday tashkil etilishi

orqali o'z bilimini oshirishlari mumkin. O'zaro muloqot va hamkorlikni rag'batlantiradi. Ular birgalikda muammolarni hal qilib, o'zlarining bilimlarini mustahkamlashadi. Shuningdek, geometriya fanini o'qitishda raqamli simulyatsiyalar va virtual resurslardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirib, geometrik tushunchalarni yanada yaxshi o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://prezident.uz/uz/lists/view/2228>
2. Makhmudova D.M. Using artificial intelligence techniques in web application firewall (WAF) // - AIP Conference Proceedings, 2024.
3. Israilova F.A. Chirchiq Davlat Pedagogika. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va rollari." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 85-90.
4. Maxmudova D.M. - Ilmiy umumlashtirish layoqatini tarbiyalash asosida talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish / Science and innovation, 2023.

FIZIKA FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI TANLOVINING AHAMIYATI

S.A.Fazilova

*Guliston Davlat Pedagogika Instituti katta o'qituvchisi
fazilovasurayyo4@gmail.com*

Davlat ta'lim standartida talabalarning mustaqil ishlariga ajratilgan o'quv soatlari ulushining yetarli darajada ortishi mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmunini, uslublarini va didaktik qo'llab-quvvatlash vositalarini zamonaviylashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ushbu talablar barcha fanlar qatori "Fizika" fanidan ham mustaqil ishlar mazmunini, uning turlarini, vazifalarga qo'yiladigan talablarni aniqlash muammolarini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ijodiy qobiliyat, "o'rganishni o'rgatish" fanlararo yondoshuvlar, loyihaga asoslangan ta'lim

The sufficient increase in the share of study hours allocated to independent work of students in the state educational standard indicates the need to modernize the content, methods and means of didactic support for independent education. These requirements create the problems of determining the content of independent work, its types, requirements for tasks, as well as for all sciences.

Key words: self-directed learning, creativity, "teaching to learn", interdisciplinary approaches, project-based learning

Увеличение доли учебных часов, отведенных на самостоятельную работу обучающихся в государственном образовательном стандарте, свидетельствует о необходимости модернизации содержания, методов и средств дидактического обеспечения самостоятельного образования. Эти

qilmoqda. Shuningdek, “oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir” [1].

Shu bois raqamli platformalar vastasida matematika fanini o‘qitishda samarali natijalarga erishish maqsadida bugungi kunda bir qancha izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan geometriya darslarida raqamli simmulyatsiyalardan foydalanish fazoviy tasavvurni rivojlantirish, jarayonni to‘ri tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Dastlab raqamli platformaga tuxtalib o‘tamiz. Masalan “kurslar va o‘quv materiallari uchun Coursera, Khan Academy; Interaktiv simulyatsiya va o‘qitish vositalari uchun GeoGebra; O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida muloqot uchun Google Classroom; Matematika va ilmiy o‘qitish uchun esa Desmosdan keng foydalanilmoqda” [3.B. 85-90.].

Ushbu raqamli platformalar o‘quvchilarga ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishiga yordam beradi, shuningdek, ularni mustaqil o‘rganishga, ijodiy fikrlashga va ilmiy tajribalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Bu raqamli platformalarni tahlil qilib biz tadqiqotimiz doirasida ikkinchi tartibli ergi chiziqlarni o‘qitishda raqamli simmulyatsilar yordamida mustaqil ta’limda foydalanish uchun maxsus ilova ishlab chiqdik. Bu ilova onlayin tarzda ishlaydi. Ilovani Python dasturlash tili yordamida yaratdik. Ilovamiz 5 ta bo‘limda iborat. Har bir bo‘limda maruza matni hamda mustaqil topshiriqlar bilan birgalikda qo‘shimcha ikkinchi tartibli egri chiziqlarni tadbig‘i, amaliyotda qo‘llanishi va hayotiy masalalar keltirilgan. “Talabalarga geometrik shakllarni bevosita yaratishda va ularning xususiyatlarini o‘rganishda, geometrik ob’ektlar, ularning xususiyatlarini ko‘rish imkoniyatlari, masalan, 3D modellashuv bilan birga, o‘quvchilar uchun geometrik tushunchalarni yanada tushunarli qiladi. Ushbu turdagi vizualiziyalar o‘quvchilarning geometrik fikrlashini rivojlantirishda yordam beradi”[2.B.16.].

Masalan elliptik shakldagi xonaning uzunligi 20 metr (katta o‘q) va kengligi 10 metr (kichik o‘q). Ellipsning bir fokusida turgan odam gapiradi. Ovozni aniq eshitish uchun boshqa odam qaysi masofada turishi kerak?

Telskop oynasi fokus masofasi 2 metr bo‘lgan ellipsga o‘xshaydi. Agar yorug‘lik manbai bitta fokusga joylashtirilsa, ikkinchi fokusda yorug‘lik oynadan qanchalik uzoqda bo‘lishini hisoblang.

Sun‘iy yo‘ldosh antenmasida yarim katta o‘qi 3 metr va yarim kichik o‘qi 2 metr bo‘lgan elliptik reflektor ishlatiladi. Sun‘iy yo‘ldosh qabul qiluvchisi bir fokusda joylashgan va sun‘iy yo‘ldosh to‘g‘ridan-to‘g‘ri tepada joylashgan. Elliptik idishning ikkita o‘chog‘i orasidagi masofani hisoblang.

Elliptik antenaning yarim katta o‘qi 5 metr va yarim kichik o‘qi 3 metrga teng. Signal bitta fokusdan uzatiladi. Agar antenaning umumiy uzunligi 10 metr bo‘lsa, signalni qabul qilish uchun qabul qilgich boshqa fokusda qancha masofada joylashtirilishi kerak?

Bu ko‘rinishdagi masalalarni yechish talabalarda fanga oid kompetensiyasini rivojlantiradi. Talabalar fanni mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular tajribalarni yana-qayta o‘tkazish yoki yangi vazifalarni bajarish

Xulosa qilib aytganda, turli davlatlardagi olimlar va ilmiy tekshirish institutlari pedagogik eksperimentlarda turli elektron dasturiy ta'minotlardan foydalanadilar. Misollardan ko'rinib turibdiki, har bir dasturiy ta'minot o'zining funksional imkoniyatlari va tadqiqot maqsadiga qarab qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Junior Research Associate Program,
<https://www.riken.jp/en/careers/programs/jra/>

2. R Programming for Clinical Trial Analytics.
<https://www.atorusresearch.com/r-programming-for-clinical-trial-analytics/>

3. Makhmudova D.M. Using artificial intelligence techniques in web application firewall (WAF) // - AIP Conference Proceedings, 2024.

4. Israilova F.A. Chirchiq Davlat Pedagogika. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va rollari." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 85-90.

5. Maxmudova D.M. - Ilmiy umumlashtirish layoqatini tarbiyalash asosida talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish / Science and innovation, 2023

GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH

*Islomov San'at Mash'al o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Abstract. The article describes the teaching of second-order lines by means of numerical simulations. The importance of bees in the development of scientific competences in students has been shown.

Key words: digital platforms, digital simulation, virtual resource, second-order lines.

Аннотация. В статье описано обучение линий второго порядка посредством численного моделирования. Показано значение пчел в развитии научных компетенций у студентов.

Ключевые слова: цифровые платформы, цифровое моделирование, виртуальный ресурс, линии второго порядка.

Annatotsiya. Maqolada ikkinchi tartibli chiziqlaribni raqamli simmiliyasiyalar vositasida o'qitish bayon qilingan. Talabalarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda asalalarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli platformalar, raqamli simulyatsiya, virtual resurs, ikkinchi tartibli chiziqlar.

Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali matematika o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va korporativ xizmatlarda ishtirok etishini ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratish vazifalari yetakchilik

dastur o'zining o'ziga xos funksiyalari va afzalliklariga ega bo'lib, ta'lim jarayonida turli xil maqsadlar uchun ishlatiladi. MATLAB va R Programming ko'proq matematik modellash va ma'lumotlar tahliliga mos kelsa, SPSS esa statistik tahlil uchun qulaylik yaratadi. GeoGebra matematika va geometriya fanlarida vizualizatsiya va interaktiv o'qitishni ta'minlasa, Python ko'p qirrali imkoniyatlari tufayli turli ilmiy va ta'limiy sohalarda qo'llaniladi [4.B. 85-90.].

Ushbu "dasturiy ta'minotlarning pedagogik eksperimentlarda qo'llanilishi o'qituvchilarga ma'lumotlarni batafsil tahlil qilish, ta'lim jarayonini nazorat qilish va eksperimentlar natijalarini vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu dasturlar yordamida o'quvchilarning fikr-mulohaza qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish va ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi" [3.B.8].

Yaponiyada R Programming va MATLAB dasturlari bo'yicha qator tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ular turli sohalarda foydalanilgan.

RIKEN tadqiqotlari. 2011 yildan hozirgi kungacha RIKEN Institutining RIKEN markazlarida bir qator olimlar R Programming va MATLAB dasturlaridan foydalangan holda tadqiqotlar olib bormoqdalar [1.B.12]. Ushbu tadqiqotlar tibbiyot, biologiya, va matematik fanlar sohasida o'tkazilgan. Tadqiqot yo'nalishlari matematik modellashtirish, biomeditsina tadqiqotlari va simulyatsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlardir.

Kioto Universitetida esa doktor Kenji Sato 2018 yilda "Injenerlik tadqiqotlarida MATLABning qo'llanilishi" mavzusida ilmiy ish olib borgan. MATLAB orqali texnik simulyatsiyalar va matematik modellashtirish usullari o'rganilgan. Dasturiy ta'minot sifatida MATLAB simulyatsiya va modellashtirish uchun qo'llangan. MATLAB biomeditsina va farmatsevtika tadqiqotlarida yordam bergan, ayniqsa ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va algoritmlar yaratish jarayonlarida qo'llanilgan [1.B.12].

2016 yilda Tokio Universitetida professor Xiroshi Takaxashi "Iqtisodiy tahlilda R Programmingdan foydalanish" mavzusida tadqiqot o'tkazgan. Tadqiqotning maqsadi — iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va prognoz qilishda Rning samaradorligini o'rganish edi. Dasturiy ta'minot sifatida R Programming statistik tahlil uchun asosiy vosita sifatida qo'llanilgan [2.B.16].

So'nggi yillarda R Programming farmatsevtika sohasida klinik sinovlar, gipoteza tekshiruvlari va ma'lumotlarni tahlil qilishda muhim vosita sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu dastur tarmoq tadqiqotlarida vaqt samaradorligi va ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonlarini yaxshilashga yordam bergan. R Programming klinik tadqiqotlarni tezkor va samarali o'tkazish, ma'lumotlarning aniqligini ta'minlash va tadqiqot natijalarini vizualizatsiya qilishga qaratilgan [2.B.16]. Ushbu tadqiqotlarning barchasi Yaponiyada R Programming va MATLAB dasturlarining keng qo'llanilishini va ularning turli ilmiy sohalardagi muhim rolini ko'rsatadi. Ular tibbiyot, muhandislik, matematik modellashtirish va biotexnologiya kabi sohalarda ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirishga yordam bermoqda.

8. Tursunov, A.T. (2020). *Raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

9. D.Makhmudova Using artificial intelligence techniques in web application firewall (WAF) / / - AIP Conference Proceedings, 2024 <https://doi.org/10.1063/5.0210409>

Pedagogik eksperimentlarda qo‘llaniladigan elektron dasturiy ta‘minotlar tahlili

Qulmatov Z.Z.-Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

zulfiqor9467@gmail.com

Annotatsiya. Pedagogik eksperimentlarda qo‘llaniladigan elektron dasturiy ta‘minotlar turli davlatlarda turli olimlar tomonidan foydalaniladi va ularning tanlovi tadqiqotning maqsadi va sohasiga bog‘liq. Maqolada ayrim davlatlardagi olimlarning, ilmiy tekshirish institutlarining va ular qo‘llagan elektron dasturiy ta‘minotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik eksperiment, SPSS, R Programming, MATLAB, GeoGebra, Python.

Annotation. Electronic software used in pedagogical experiments are used by different scientists in different countries, and their choice depends on the purpose and field of research. The article analyzes the electronic software used by scientists and research institutions in some countries.

Key words. Pedagogical experiment, SPSS, R-programming, MATLAB, GeoGebra, Python.

Аннотация. В «Педагогическом эксперименте» используется ручное электронное программное обеспечение, созданное разными учеными в разных странах, и выбор зависит от цели и области исследований. Статья содержит анализ ученых, научно-исследовательских институтов и электронного программного обеспечения, которое они используют в некоторых странах.

Ключевые слова. Педагогический эксперимент, SPSS, R-программирование, MATLAB, GeoGebra, Python.

Bugungi kunda ta‘lim tizimi tezkor rivojlanish va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Ta‘lim jarayonini yanada samarali va innovatsion qilish uchun pedagogik eksperimentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu eksperimentlar yordamida yangi metodikalar, o‘qitish usullari va ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar sinovdan o‘tkaziladi. Bu jarayonlarda elektron dasturiy ta‘minotlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular eksperimentlarni samarali boshqarish, ma‘lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi.

Elektron dasturiy ta‘minotlar, jumladan MATLAB, SPSS, R Programming, GeoGebra va Python, pedagogik eksperimentlarda keng qo‘llaniladi. Har bir

➤ **Raqamli platformalarning cheklovlari:** Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom, va boshqalar) ning o'ziga xos afzalliklari bor bo'lsa-da, ba'zida ularni ta'limning turli talablariga to'liq mos kelmasligi ham muammo tug'diradi. Ya'ni, barcha ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun ularning ayrim funksiyalari yetarli emas. Masalan, ayrim platformalar murakkab interaktiv mashg'ulotlarni amalga oshirish yoki katta hajmdagi darslik materiallarini yuklash imkoniyatiga ega emas. Bu o'qituvchi va talabalardan bir nechta platformani birgalikda ishlatishni taqozo etadi, bu esa jarayon ishtirokchilaridan ko'proq vaqt va resurslar talab qiladi.

➤ **Ta'limni moslashtirish va qo'llab-quvvatlash ehtiyoji:** Mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchilar texnik va ilmiy masalalarda qo'llab-quvvatlanishi muhimdir. Bu nafaqat texnik jihatdan yordam, balki o'quv jarayonini rejalashtirish, o'quv materiallarini qidirish va ishlash bo'yicha maslahatlar shaklida ham bo'lishi mumkin. Shu bois, ta'lim muassasalari tomonidan maxsus texnik yordam xizmatlari, onlayn qo'llanmalar, va mustaqil o'qishni boshqarishga qaratilgan qo'shimcha vositalarni tashkil etish talab etiladi. Masalan, texnik yordam xizmatlari talabalarga o'quv jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan texnik muammolarni bartaraf etishga yordam beradi, bu esa jarayonning uzluksiz davom etishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Mustaqil ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, mustaqil ta'lim jarayonini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi. Ta'lim muassasalari bu jarayonda talabalarga va o'qituvchilarga doimiy metodik va texnik ko'mak berib, raqamli savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni tashkil etishlari lozim. Shu tarzda, raqamli ta'lim texnologiyalaridan to'liq foydalanish mustaqil o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.
2. Bates, A. W. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning for a Digital Age*. Tony Bates Associates Ltd.
3. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). *Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines*. Jossey-Bass.
4. Johnson, L., Becker, S. A., Cummins, M., Estrada, V., Freeman, A., & Hall, C. (2016). *NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition*. The New Media Consortium.
5. Laurillard, D. (2012). *Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology*. Routledge.
6. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3
7. Nurullayev A.N., Ismoilov, S.M. (2018). *Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

Mustaqil ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar asosan ta'lim resurslarini optimallashtirish, interaktiv va o'zaro aloqani kuchaytiruvchi vositalarni qo'llashga qaratilgan. Asosiy ma'lumot manbaalari sifatida xalqaro ta'lim loyihalari, ilmiy maqolalar va mashhur raqamli platformalardan (masalan, Moodle, Coursera, Google Classroom) foydalanish tajribasi tahlil qilindi. Bu platformalar ta'lim jarayonlarini boshqarish va o'quv materiallarini o'quvchilarga qulay shaklda taqdim etish imkonini beradi.

Mustaqil ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning asosiy afzalligi shundaki, ular talabalarga o'quv jarayonini ma'lum tanlangan vaqt va makonda tashkil qilish imkonini beradi. Interaktiv videodarslar, onlayn testlar, o'yin-testlar va turli xil loyihaviy ishlar kabi vositalar orqali talaba o'zini-o'zi baholash, bilim-ko'nikmalarni qay darajada samarali ozlashtirib olayotganini tezkor, aniq tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, Moodle, Coursera, Google Classroom kabi online platformalar talabalar foydalanishlari mumkin bo'lgan keng ma'lumotlar ba'zasini taqdim etadilar. Bu platformalardagi bilim resurslari — videodarslar, qo'llanmalar va testlar — talabalarni fanni yanada chuqurroq o'rganishga, o'quv jarayonidagi talablarni o'zlashtirishlariga katta hizmat qiladi.

Muhokama va tahlil

“Raqamli boshqaruv tizimlari, bulutli hisoblash va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar insoniyat uchun yangi imkoniyatlarni ochish bilan birgalikda yangi muammolarni ham yaratdi” [9]. Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ko'pgina afzalliklari bilan bir qatorda bir qator qiyinchiliklar va cheklovlarni ham mavjud bo'lib, bular quyidagicha kengaytirib ko'rilishi mumkin:

➤ **Texnik resurslar yetishmasligi:** Barcha talabalar va o'qituvchilarning texnik vositalar (kompyuter, planshet, tezkor internet kabi) bilan bir xil darajada ta'minlanmaganligi mustaqil ta'limni tashkil etishda muammolar keltirib chiqaradi. Garchi, ta'lim muassasalari barcha talabalarga teng imkoniyat yaratishga intilsalarda, texnik jihozlarning yetishmasligi yoki internetga cheklangan ulanish bu jarayonni qiyinlashishiga sabab bo'lib qoladi. Shuning uchun raqamli ta'lim resurslaridan keng foydalanishda davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari tashkil etilishi muhim.

➤ **Raqamli savodxonlikning pastligi:** yana bir muhim sabab shuki, barcha o'qituvchilar va talabalar bir xil darajada raqamli savodxonlikka ega bo'lmasliklari mumkin. Bu esa jarayonda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar uchun raqamli platformalardan foydalanish dastlab qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchilarning raqamli savodxonligi yetarli darajada bo'lmasa, mustaqil ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish ham qiyinlashadi. Bu masalani ijobiy hal qilish uchun esa ta'lim muassasalari va o'qituvchilar o'rtasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlari, treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Kirish

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalarida keng tatbiq etilmoqda va bu jarayon ta'lim sohasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi ortib bormoqda. Bu jarayonda talabalar o'z bilimlarini boyitish, qobiliyat va iqtidorlarini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, ularning o'quv faoliyatini mustaqil boshqarishni o'rganishlari uchun raqamli texnologiyalar samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda mustaqil ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etish imkoniyatlari va samaradorligi tahlil qilindi. Mustaqil ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalar bilim olish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida talabalar o'z vaqtida va qulay sharoitda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lib, ta'lim resurslari bilan bemaol ishlash imkoniyatini qo'lga kiritadilar

Adabiyotlar tahlili

Andersonning "The Theory and Practice of Online Learning" asarida raqamli texnologiyalarning masofaviy va mustaqil ta'limdagi o'rnini keng yoritiladi. U onlayn ta'lim jarayonini tahlil qilib, raqamli vositalar yordamida o'quv jarayonini interaktiv qilish hamda talabalar mas'uliyatini oshirishni ta'kidlaydi: "Raqamli vositalar, talabalar o'zlariga mos keladigan o'qitish usullarini tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitni yaratadi" [1, B.43].

Batesning "Teaching in a Digital Age" asari raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta'limni zamonaviylashtirishga bag'ishlangan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini samarali va qulay qiladi: "Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali talabalar o'zlari uchun qulay va samarali o'quv muhitini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi" [2, B.58].

Laurillard "Teaching as a Design Science" asarida ta'limni dizayn sifatida o'rganadi va raqamli texnologiyalar o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb qilishini ta'kidlaydi: "Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini dizaynlashda keng imkoniyatlar yaratadi va o'quvchilarni bilim olishda faol ishtirok etishga undaydi" [5, B.72].

Nurullayev va Ismoilov "Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni" asarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'zbek ta'lim tizimidagi afzalliklarini ko'rsatadi: "Axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash orqali talabalar masofadan bilim olish va o'z o'quv faoliyatini boshqarishni o'rganadi" [7, B.35].

Tursunovning "Raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari" asarida ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning mustaqil bilim olish va mas'uliyatni oshirishga ta'siri haqida so'z boradi: "Raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish va o'quvchilarda bilim olishda mustaqillikni oshirishga yordam beradi" [8, B.47].

Tadqiqot usullari

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Lemonade. (2022). Lemonade Insurance Company. [Onlayn]. Mavjud: www.lemonade.com
2. Tokio Marine & Nichido Fire. (2022). Artificial Intelligence for Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.tokiomarine.co.jp
3. EU Commission. (2021). Digital Transformation in Insurance Sector. [Onlayn]. Mavjud: www.ec.europa.eu
4. Ping An Insurance Group. (2022). Big Data and AI in Insurance. [Onlayn]. Mavjud: www.pingan.com

MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

M.A.Nishonova ADPI, doktorant

Annotatsiya

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora ortib bormoqda. Mustaqil ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va bilim olish samaradorligini oshirishda, ularni bilimlarni chuqur o'zlashtirishga jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot mustaqil ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar yordamida qo'llab-quvvatlashning afzalliklarini tahlil qiladi hamda uning samaradorligini oshirishda qaysi omillar muhim ekanini ko'rsatadi.

Сегодня использование цифровых технологий в образовательных процессах постоянно растет. В процессе самостоятельного обучения цифровые технологии играют важную роль в повышении эффективности саморазвития и обучения учащихся, способствуя их более глубокому усвоению знаний. Данное исследование анализирует преимущества поддержки самостоятельного обучения с помощью цифровых технологий и определяет, какие факторы важны для повышения его эффективности.

Nowadays, the use of digital technologies in educational processes is steadily increasing. In independent learning, digital technologies play an essential role in enhancing students' self-development and learning efficiency, encouraging them to grasp knowledge more deeply. This research analyzes the advantages of supporting independent learning through digital technologies and identifies the key factors that contribute to improving its effectiveness.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar, Moodle, Google Classroom, Coursera, raqamli savodxonlik, ta'lim resurslari, texnik qo'llab-quvvatlash

Ключевые слова: самостоятельное обучение, цифровые технологии, Moodle, Google Classroom, Coursera, цифровая грамотность, образовательные ресурсы, техническая поддержка

Keywords: Independent learning, digital technologies, Moodle, Google Classroom, Coursera, digital literacy, educational resources, technical support

blokcheyn texnologiyasini ma'lumotlarni xavfsiz saqlash uchun foydalanmoqda [1][2].

Sug'urta xarajatlarini optimallashtirishni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

Sug'urta kompaniyasi xarajatlarini minimal darajada ushlab qolish uchun quyidagi optimallashtirish formulasidan foydalanish mumkin:

$$C_{min} = \frac{\sum_{i=1}^n (P_i * E_i)}{n}$$

bu yerda:

- C_{min} — sug'urta xarajatlarining minimal qiymati,
- P_i — xavfli hodisa uchun mumkin bo'lgan to'lov,
- E_i — hodisaning ehtimolligi,
- n — tahlil qilingan xavf hodisalari soni.

Bu formula sug'urta kompaniyasi uchun xarajatlarni optimallashtirishda yordam beradi va sug'urta polisining qiymatini minimal darajada ushlab turish imkoniyatini beradi.

Sug'urta sohasida raqamlashtirish uchun xorij tajribasidan kelib chiqadigan saboqlar

Xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston sug'urta kompaniyalari raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali xavf tahlilini takomillashtirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniga ega. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish orqali xizmat ko'rsatish sifati oshadi, blokcheyn texnologiyasi esa ma'lumotlarni himoya qiladi [3][4].

O'zbekiston sug'urta bozorini raqamlashtirish uchun tavsiyalar

Xorijiy tajribalarga asoslanib O'zbekistonda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin:

1. *Sun'iy intellektni tatbiq etish:* Sun'iy intellekt orqali sug'urta jarayonlarini avtomatlashtirish va xavf tahlil qilish samaradorligini oshirish.
2. *Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish:* Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va shaffoflikni ta'minlash uchun blokcheyn texnologiyasini qo'llash.
3. *Katta ma'lumotlardan foydalanish:* Mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilib, sug'urta xizmatlarini moslashtirish va mijozlar ehtiyojlariga qarab xizmatlarni takomillashtirish.
4. *Raqamli xizmatlarni yaratish uchun startaplarni qo'llab-quvvatlash:* Sug'urta sohasida startaplar va innovatsion yechimlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish va investitsiyalar ajratish.

Xulosa

Raqamlashtirish sug'urta sohasini tezkorlik, xavfsizlik va sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Ushbu maqolada xorijiy tajribalarga asoslanib, O'zbekiston sug'urta sohasini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar va yondashuvlarni joriy qilishning dolzarbligi va afzalliklari yoritilgan. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn texnologiyalarini qo'llash orqali sug'urta jarayonlari yanada samarali bo'lib, mijozlar uchun qulaylik yaratish mumkin.

beradi. Quyidagi formulalar sug'urta sohasida xavf tahlili va jarayonlarni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Sug'urta xavfini baholash jarayonini quyidagi usul yordamida keltirish mumkin:

Raqamli texnologiyalar yordamida sug'urta xavfini baholash uchun sug'urta xavf koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$R = \frac{L * E}{C}$$

bu yerda:

- R — sug'urta xavf koeffitsienti,
- L — kutilayotgan zarar miqdori,
- E — xavfning ehtimolligi,
- C — sug'urta polisi qiymati.

Ushbu formula yordamida raqamli sug'urta xizmatlari sug'urta xavfini minimal qiymatda baholay oladi va sug'urta kompaniyasiga o'z mijozlariga mos xizmatlar taklif qilish imkonini beradi.

Jadval 1. Xorijiy davlatlarda sug'urta sohasida raqamlashtirishning asosiy afzalliklari va texnologiyalar

Davlat	Texnologiyalar	Sug'urta jarayonlari	Afzalliklari	Manba
AQSh	Sun'iy intellekt	Xavf tahlili va avtomatlashtirish	Sug'urta tezligi, mijoz qulayligi	[1]
Yaponiya	Blokcheyn	Ma'lumotlarni himoya qilish	Maxfiylik, ma'lumotlarning xavfsizligi	[2]
Yevropa	Katta ma'lumotlar	Mijozlarni tahlil qilish	Moslashtirilgan xizmatlar, xarajatlarni kamaytirish	[3]
Xitoy	Sun'iy intellekt	Tibbiy sug'urta va xavf baholash	Tezkor xizmat, mijozlar bilan aloqani yaxshilash	[4]

Manba: Ma'lumotlar AQShda [1], Yaponiyada [2], Yevropada [3], Xitoyda [4] o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan.

Xorij tajribasi tahlili

Xalqaro sug'urta kompaniyalari sun'iy intellekt yordamida xavf tahlil qilish va avtomatlashtirish imkoniyatlarini keng qo'llab kelmoqda. AQShdagi Lemonade sug'urta kompaniyasi sun'iy intellekt asosida avtomatik xizmat ko'rsatish texnologiyasini joriy etib, sug'urta jarayonlarini tezkor va samarali qilib bormoqda. Yaponiya esa Tokio Marine & Nichido Fire kompaniyasi orqali

O‘zbekiston, sug‘urta, raqamlashtirish, xorijiy tajriba, sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar

Annotation:

The study explores the importance of digitalization for developing Uzbekistan's insurance sector, focusing on insights drawn from international experiences in countries such as the USA, Europe, Japan, and China. Specifically, it examines how these countries utilize artificial intelligence, big data, and blockchain technologies to streamline insurance processes. Furthermore, the article discusses the applicability of these foreign experiences within Uzbekistan, emphasizing the potential economic and social benefits of implementing digital insurance services. The paper provides strategic recommendations for creating and employing digital solutions tailored for Uzbekistan's insurance companies.

Keywords:

Uzbekistan, insurance, digitalization, international experience, artificial intelligence, blockchain, big data

Аннотация:

Исследование посвящено изучению значимости цифровизации для развития страхового сектора Узбекистана на основе анализа международного опыта в странах, таких как США, Европа, Япония и Китай. В статье рассматривается, как эти страны используют технологии искусственного интеллекта, большие данные и блокчейн для улучшения страховых процессов. Кроме того, обсуждаются возможности применения иностранного опыта в Узбекистане и социально-экономическая значимость внедрения цифровых страховых услуг. В статье приводятся рекомендации для разработки цифровых решений для узбекских страховых компаний.

Ключевые слова:

Узбекистан, страхование, цифровизация, международный опыт, искусственный интеллект, блокчейн, большие данные

Kirish

Raqamli texnologiyalar sug‘urta sohasini butunlay o‘zgartirishda davom etmoqda. Sug‘urta xizmatlarida raqamlashtirish xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va mijozlarga yaxshiroq xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratmoqda. Masalan, sun’iy intellekt orqali xavf tahlil qilish, katta ma’lumotlar yordamida mijozlarning ma’lumotlarini tahlil qilish va blokcheyn texnologiyasi yordamida ma’lumotlarni xavfsiz saqlash imkoniyati mavjud. Ushbu maqolada, xorijiy tajribalarni o‘rganish orqali O‘zbekiston sug‘urta sohasini raqamlashtirish jarayoni tahlil qilinadi.

Sug‘urta sohasini raqamlashtirish tushunchasi va ahamiyati

Sug‘urta sohasida raqamlashtirish sug‘urta jarayonlarini avtomatlashtirish va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlarni taqdim etish imkonini

turli matematik modellar va grafiklarni yaratish imkoniyatlari mavjud. Ushbu platforma orqali talabalar va tadqiqotchilar algebraik hisoblashlar, differensial tenglamalar, integral va matritsalar bilan ishlashda sezilaril darajada qulaylikka ega bo'ladilar. Shuningdek, Maple ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi. Maple platformasidan foydalanish nafaqat matematik masalalarni tez va to'g'ri yechish, balki ularni tahlil qilish va tadqiqot faoliyatida kengroq imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umirzaqova, Kamola Oripjanovna. "PERIODIC GIBBS MEASURES FOR HARD-CORE MODEL." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.3 (2020): 67-73.

2. Xakimov, R. M. (2019). IMPROVEMENT OF ONE RESULT FOR THE POTTS MODEL ON THE CALEY TREE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 3-8.

3. Qahramon o'g, O. K. I., Hasanboy o'g, J. R. A., & Hasanboy o'g, X. J. R. (2024). ANIQ INTEGRAL YORDAMIDA BA'ZI BIR LIMITLARNI HISOBLASH METODLARI. JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS, 3(6), 23-27.

4. Уктамалиев, И. К. "О предгеометриях конечно порожденных коммутативных полугрупп." МАЛЬЦЕВСКИЕ ЧТЕНИЯ. 2022.

5. Уктамалиев, И. К. "О числе счётных моделей аддитивной теории натуральных чисел." (2022): 14-14.

6. Уктамалиев, И. К. О РАСПРЕДЕЛЕНИЯХ СЧЕТНЫХ МОДЕЛЕЙ ТЕОРИЙ МОНОИДОВ НАТУРАЛЬНЫХ ЧИСЕЛ. с Composite authors, 2023 с Novosibirsk State Technical University, 2023, 151.

SUG'URTA SOHASINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINI O'RGANISH

Saidov Farrux Faxriddinovich


Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya:

O'zbekiston sug'urta sohasining rivojlanishi uchun raqamlashtirish jarayonining o'rganilishi va xorijiy davlatlarda qo'llanilayotgan texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. Ushbu maqolada AQSh, Yevropa, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlarning sug'urta sohasida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), blokcheyn kabi texnologiyalardan foydalanish tajribasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xorijiy tajribalarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilib, raqamli sug'urta xizmatlarini joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Ushbu maqola sug'urta kompaniyalari uchun zamonaviy raqamli echimlarni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar:




Misolni shartini kiritgandan so‘ng **integrate** tugmasini bosish orqali natijani olishimiz mumkin bo‘ldi. Demak, javob: $\frac{\ln(x-1)}{8} + \frac{\ln(x+1)}{8} - \frac{\ln(x^2+1)}{8} + C$.

Misol. Maple dasturiy platformasidan foydalanib $\begin{pmatrix} 3 & 8 & 12 \\ 6 & 14 & 21 \\ 9 & 11 & 5 \end{pmatrix}$

matritsaning determinantini hisoblang.

Yechish. Maple platformasidan Matrix Determinant bo‘limini tanlab yuqoridagi matritsani kiritamiz va **Determinant** tugmasini bosib matritsa determinantini hisoblashimiz mumkin:



Bundan ko‘rinadiki, berilgan matritsaning determinanti $D = 69$ ga teng ekan.

Ushbu platforma talabalarning murakkab masalalarni yechishdagi bilimlarini tekshirish, tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Maple dasturi talabalarning bilimlari yanada oshishi mustahkamlanishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Lekin, ushbu platformadan to‘g‘ri foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ushbu platformadan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va yangi bilimlarni egallash uchun ishlatish, bilimimizni oshirishda samarali natija beradi.

Xulosa

Maple platformasi matematika fanini o‘rganishda samarali vositalardan biri bo‘lib, bu dastur yordamida murakkab matematik hisoblashlarni soddalashtirish,




Maple sizning kompyuteringizga mutaxassis matematiklarning muammolari hal qilish qobiliyatini olib keladi. Yuz minglab talabalar matematikaning deyarli barcha sohalarida, jumladan hisob, algebra, differensial tenglamalar, chiziqli tizimlar, statistika, chiziqli algebra, geometriya va boshqalarda muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun Maple-ga tayanadilar!

- Topshiriqni topshirishdan oldin mexanik xatolarni toping va tuzating.
- Tasvirlash qiyin bo'lgan muammolar va yechimlarni interfaol sujjetlar va animatsiyalar yordamida tasavvur qiling.
- Matematik tushunchalarni tasavvur qilish va o'rganishga yordam berish uchun maxsus mo'ljallangan interfaol vositalar yordamida tushunishingizni tez, yaxshilang.

Maple ko'pgina grafik kalkulyatorlarga qaraganda arzonroq va u ko'proq ishlaydi!

- Nimalar kiritilgan?




Yiliga \$75

Istalgan vaqtda bekor qiling

HOZIR XARID QILISH

Maple platformasini ishga tushurish uchun <https://www.maplesoft.com/products/StudentApps/> saytiga yoki Play Market va app Store orqali mobil ilovasini yuklab olishingiz mumkin. Biz bu maqolamizda yuqorida ko'rsatilgan saytdan foydalanamiz. Platformaga kirgandan so'ng quyidagi oyna ochiladi:



Maple dasturiy platforma qiyin mavzularni o'zlashtirish, masalalarni hal qilish, matematik, fizik va boshqa aniq fanlarni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Keling, bu platformadan foydalanib ba'zi misollarni yechimini topib ko'raylik.

Misol. Maple platformasida $\int \frac{x}{x^8-1} dx$ integralni hisoblang.

Yechish. Yuqorida ko'rsatilgan rasmdan o'zimizga kerakli bo'limni tanlab olamiz va berilgan misolni kiritamiz:

Annotatsiya: *Bu maqola Maple platformasining matematika fanini o‘rganishdagi ahamiyati, uning imkoniyatlari va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maple yordamida murakkab matematik masalalarni yechish, grafik chizish va boshqa matematik jarayonlarni raqamli texnologiya yordamida sodda va samarali o‘rganish mumkin.*

Kalit so‘zlar: Matematika, raqamli texnologiyalar, platforma, integral, matritsa, determinant, dastur, sayt.

Kirish

- **Matematika ta’limida raqamli vositalarning ahamiyati.**
- **Maple dasturiy platformasining qisqacha tarixi va rivoji.**
- **Ushbu maqolaning maqsadi va ahamiyati**

Matematika ta’limida raqamli texnologiyalarning ahamiyati juda katta. Zamonaviy raqamli texnologiyalar matematika fanini o‘qitish usullarini sezilarli darajada o‘zgartiradi va yanada qiziqarli, samarali ta’lim jarayonlarini tashkil etishga yorrdam bermoqda.

Maple daasturiy platformasi 1980 – yillarda Kanada, Waterloo universitetida ishlab chiqilgan. Ilmiy hisob-kitoblarni amlga oshirish va matematik tahlilni osonlashtirish maqsadida yaratilgan. Dastlabki versiyalari asosan kompyuter fanlari va matematik sohalarida ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ishlatilar edi. 1990 – yillarga kelib, Maple matematik madellashtirish, hisoblashlar va grafik imkoniyatlari bilan butun dunyo ilmiy hamjamiyati orasida mashhur bo‘lib ketti. Shu davrda u o‘zining grafik interfeysi va interaktiv imkoniyatlarini yaxshiladi. Bu dasturiy ta’minot nafaqat universitetlarda balki sanoatda ham keng qo‘llanila boshlandi. Maple bugungi kunda ko‘plab dasturiy yangilanish va rivojlanishlarorqali o‘zining qulayligi va funkcionalligi bilan taniqli bo‘lib, matematik tadqiqotlar, muhandislik, fizik va boshqa ko‘plab texnik sohalarida ishlatilmoqda. Ushbu platforma matematik, fizik va muhandislik masalalarini yechishda qulay vosita bo‘lib, foydalanuvchilarga ilmiy va texnik hisob-kitoblarni aniq va tez bajarishga yordam beradi. Maple algebradan tortib, differensial tenglamalar, statistik tahlil va grafik chizishgacha bo‘lgan ko‘plab matematik operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu platformadan foydalanuvchilar dastlabki 15 kun davomida bepul foydalanishlari mumkin bo‘ladi. 1 yillik obuna narxi esa 75 \$ dan boshlanadi.

- и конструкций из них для применения в сейсмостойких зданиях." Вестник науки и образования 10-1 (64) (2019).
4. Rustamov, Erkin Toxirovich, and Nozim Qayumovich Idiyev. "SHIZMA VAJARISHDA OQUVCHILAR YOL QOYADIGAN TIPIK XATOLAR." Интернаука 20-2 (2018): 58-60.
 5. Рустамов, Эркин Тохирович, and Джамал Рашидович Уринов. "НАХОЖДЕНИЕ ТЕНИ МНОГОГРАННИКОВ В ОРТОГОНАЛЬНЫХ ПРОЕКЦИЯХ." COVID-19 и современное общество: социально-экономические последствия и новые вызовы. 2020.
 6. B. Sh. I., Dilmurodovna, R. D., Tohirovich, R. E., & Norjona, P. (2023). TECHNOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA INTERFAOL USULLARNI QO 'LLASH METODIKASI. Ta'lim fidoyilari, 4(1), 191-197.
 7. Dilmurodovna R. D. XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO 'ZLIK SAN'ATI MISOLIDA) //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12.
 8. Dilmurodovna R. D. XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (ZARDO 'ZLIK SAN'ATI MISOLIDA) //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12.

Matematika fanini o'rganishda Maple platformasidan foydalanish imkoniyatlari va amaliy jihatlari

*O'ktamaliyev Ikromjon Qahramon o'g'li
Ho'jamqulov Ravshanbek Hasanboy o'g'li
Ibrohimjonova Mohinabonu Jamoliddin qizi*

*Namangan Davlat Pedagogika instituti Matematika-informatika yo'nalishi
2-kurs talabalari*

Annotation: *This article is devoted to the study of the importance of the Maple platform in the study of mathematics, its capabilities and practical aspects. With the help of Maple, it is possible to solve complex mathematical problems, draw graphs and study other mathematical processes simply and effectively using digital technology.*

Keywords: Mathematics, digital technologies, platform, integral, matrix, determinant, program, site.

Аннотация: *Данная статья посвящена исследованию значения платформы Maple при изучении математики, ее возможностей и практических аспектов. С помощью Maple можно легко и эффективно научиться решать сложные математические задачи, рисовать графики и выполнять другие математические процессы с использованием цифровых технологий.*

Ключевые слова: Математика, цифровые технологии, платформа, интеграл, матрица, определитель, программа, сайт.

Gumanoid robotning rasmini Leonardo da Vinchi 1495 yil atrofida yasagan. Leonardoning 1950 yillarda topilgan yozuvlarida mexanik ritsarning o'tirishi, qo'llarini yoyishi, boshini silkitishi va qopqog'ini ochishi mumkin bo'lgan batafsil rasmlari mavjud. Dizayn, ehtimol, Vitruvialik odamda o'tkazilgan anatomik tadqiqotlar asosida yaratilgan. Leonardo robotni yaratishga uringanmi yoki yo'qmi noma'lum.

G'arbiy Evropada XVI-XVIII asrlarda odamlar yoki hayvonlarga o'xshab ko'rinadigan va ba'zida juda murakkab harakatlarni amalga oshiradigan avtomatika - soat mexanizmi qurilishi keng tarqaldi. Smitson instituti kolleksiyasida bunday avtomatlarning eng qadimgi namunalaridan biri bor - «Ispaniyalik rohib» (balandligi taxminan 40 sm), yura oladigan, o'ng qo'li bilan ko'kragiga urib, boshini qimirlatgan; vaqti-vaqti bilan chap qo'lidagi yog'och xochni lablariga olib kelib, uni o'padi. Bu avtomat taxminan 1560 yilda imperator Charlz V uchun mexanik Xuanelo Turriano tomonidan yaratilgan deb ishoniladi.

XULOSA

Robotlarga asoslangan o'qitish dasturi Koreya Respublikasida yaxshi natijalar ko'rsatdi. U yerda hukumat ko'magida butun mamlakat bo'ylab mingdan ziyod o'quvchilarni qamrab olgan 140 ta sinf ochildi. Fransiya, Ispaniya, Kosta-Rika va Perudagi maktablar va bolalar bog'chalarida ham shu kabi pilot dasturlari ishga tushirilgan. «Kelajak robototexnika va avtomatlashtirilgan sanoatga tegishli bo'ladi. Biz O'zbekistonda ushbu taraqqiyotga daxldor ekanligimizdan mamnunmiz hamda Koreya va O'zbekiston nafaqat robototexnika sohasida, balki innovatsiya sohasida ham samarali hamkorlik qilishiga umid qilamiz», – dedi KIRIA kompaniyasi prezidenti Chonil Mun. Albert va Genibot robotlari butun O'zbekiston bo'ylab 53 ta TMTga taqsimlanadi. Joylarda ustozlarni o'qitish va pilot loyihasi natijalarini monitoring qilish ishlari MTV huzuridagi Axborot va pedagogik texnologiyalar innovatsion markazi tomonidan olib boriladi. Agar pilot loyihasi muvaffaqiyatli yakunlansa, O'zbekiston Maktabgacha ta'lim vazirligi yanada ko'p bolalar bog'chalarini aqlli robotlar bilan ta'minlaydi, shuningdek, ularning ish funksiyalarini imkoniyatlari cheklangan bolalarga mo'ljallangan dastur bilan to'ldiradi.

Adabiyotlar.

1. Жураев А.Р., Аслонова М.С., Бахранова У.И. Методика использования электронных учебников в обучении направления “Технология и дизайн” предмета технологии // “Проблемы педагогики” научно-методический журнал № 3 (35) / Россия, Москва. 2018. – С. 23 – 25.
2. Жураев А.Р., Рауфова Н.Р. Методика использования программы Flash при обучении предмета технологии по направлению “Технология и дизайн” // “Academy” научно-методический журнал № 6 (33) / Россия, Москва. 2018. – С. 79 – 80.
3. Уринов, Жамол Рашидович, Эркин Тохирович Рустамов, and Умид Халилович Равшанов. "Исследования неавтоклавных ячеистых бетонов

- Ishlash kuchlanishi: 5 V;
- Kirish kuchlanishi(tavsiya etilgani): 7-12 V;
 - Kirish kuchlanishi(eng yuqori): 6-20 V;
 - Raqamli kirish/chiqish: 14 ta (ulardan 6 tasi КИМ (ШиротноИмпульсная модуляция) sifatida foydalanish mumkin);
 - Analog kirish: 6 ta; - Kirish/chiqish orqali o'zgaras tok: 40 mA;
 - 3.3 V kiritish uchun o'zgaras tok: 50 mA;
 - Flash xotira: 32 KB(ATmega328) undan 0.5 KB yuklovchi sifatida foydalaniladi;
 - Tezkor xotira: 2 KB(ATmega328);
 - EEPROM: 1 KB(ATmega328);
 - Chastota: 16 MGs;

Robot yoki bot (Eng. Bot, abbr. Robot) - bu avtomatik ravishda va yoki belgilangan jadvalga binoan doimiy foydalanuvchi kabi bir xil interfeyslar orqali har qanday harakatlarni bajaradigan maxsus dastur. Qoidaga ko'ra, atama Internetga nisbatan ishlatiladi. Tarmoq o'yinlarida botlarni ba'zan kompyuter tomonidan boshqariladigan pleyerlar deyishadi.

Robot atamasi barqarorlikka ega emas. Qo'shimcha so'z (masalan, sanoat yoki BEAM) unga deyarli har doim kerak.

Robot uchta tarkibiy qismni o'z ichiga olishi kerak:

1. Sensor - Robot muhitini sezadigan sensor.
2. Reflektor - Dastur, ishlov berish moslamasi, neyron, neyron ...
3. Aktuator - Robotning ishlashi muhitida ishlarni bajarishga imkon beradigan mexanizm.

Robot sensor – reflector - aktuator zanjirida aloqa mexanizmini amalga oshiradigan ish muhitidan mustaqil bo'lgan avtonom tizimdir.

«Robot» so'zining kelib chiqishi shubhasizdir, ammo juda g'alati, kam ma'lum.

1921 yilda mashhur chex yozuvchisi Karel Shapek «R.U.R.» pyesasini yozdi. («Rossum universal robotlar»), ularning qahramonlari odamlar va robotlar - sun'iy odamlar edi.


Apapek «robot» so'zi Chexiya robotasidan kelib chiqqan - bizning fikrimizcha «ish».

Spektakl qahramonlaridan biri, RURP bosh direktori «Robotlar nima?» Degan savolga javob berar ekan, deydi: «Robotlar odamlar emas, ... ular bizdan ko'ra mexanik jihatdan mukammaldirlar, ular aql bovar qilmaydigan darajada aql-idrokka ega, lekin ularning joni yo'q.

Ushbu fazilatlar («mexanik mukammallik» va «aql bovar qilmaydigan darajada kuchli aql») tufayli robotlar odamlar kabi ishlashga va takomillashishga qodir.

Robotlarning prototiplari shuningdek arab olimi va ixtirochisi Al-Jazari tomonidan yaratilgan mexanik shakllar edi (1136-1206). Shunday qilib, u daf chaladigan, arfa va nay chaladigan to'rtta mexanik musiqachilar bilan qayiq yaratdi.

Boshqacha qilib aytganda, Arduino dasturiy va texnik qismlarni birlashtirib beruvchi qurilmadir.



1-rasm. Arduino ko‘rinishi.

Yuqorida keltirib o‘tganimizdek Arduinoning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, Arduinoni o‘rganishni boshlovchilar asosan Arduinoning Uno yoki Nano turidan foydalanishni boshlashadi.

Arduino Uno ning boshqa turlaridan farqi protsessori, mikrokontrolleri, raqamli va analog chiqishlarning ko‘p yoki kamligi bilan farqlanadi. Arduinodan foydalanayotgan kishi unga har xil elektr komponentalar va modullarni ulash imkoniyatiga ega bo‘ladi, masalan: led chiroqlar, datchiklar, rele modullari tarmoq (Wi-fi, Bluetooth, Ethernet) modullari, sensorlar, motorlar, magnit eshik qulflari va elektr energiyasi bilan ishlaydigan barcha narsalar.

Arduinoning Uno va Nano turini yaxshilab o‘rganib bo‘lgan yoshlar endi Arduinoning buturiga qoniqmay Arduinoning Mega yoki Mega 2560 turini sotib olishga oshiqishadi. Chunki, endi Arduino Uno, Nano turning xarakteristikasi (texnik ko‘rsatkichlari) robototexnik uchun kamlik qiladi. Ayrim robototexniklar esa Arduino Uno bilan tanishib chiqib uni imkoniyatlaridan foydalanib bo‘lgandan so‘ng, Arduinoning Mega turini sotib olib o‘tirmay o‘zlari yasab tayyorlab ko‘rishga harakat qilishadi. To‘g‘rida chunki endi ular dasturchi, robototexnik bemalol mikrokontrollerga dastur yozib uni mikrokontrollerga yuklay oladi. Arduino Uno ning boshqa turlaridan farqi protsessori, mikrokontrolleri, raqamli va analog chiqishlarning ko‘p yoki kamligi bilan farqlanadi. Arduinodan foydalanayotgan kishi unga har xil elektr komponentalar va modullarni ulash imkoniyatiga ega bo‘ladi, masalan: led chiroqlar, datchiklar, rele modullari tarmoq (Wi-fi, Bluetooth, Ethernet) modullari, sensorlar, motorlar, magnit eshik qulflari va elektr energiyasi bilan ishlaydigan barcha narsalar. Yuqorida aytilgandek Arduino texnik va dasturiy qismni birlashtirib beruvchi qurilma.

Arduinoning Uno turi texnik ko‘rsatkichlari:

- Mikrokontroller: ATmega328;

ma'lumot, yurish va boshqalar). Birinchi va ikkinchi nav robotlarini bitta mashinada birlashtirish mumkin, ularning ishlash vaqtini ajratish mumkin. Biror kishi uchinchi turdagi robot bilan ishlashi ham maqbuldir (nazoratchilar deb ataladigan rejimda). Quyidagi jadvalda robotlar funksiyalari odamlar funksiyalari bilan solishtirilgan.

Robotlar manipulyatorlar deb ataladigan mashinalar sinfga kiradi.

Manipulyatorlar – ko'p zvenolardan iborat mexanizm bo'lib, odam qo'li harakatlarini imitatsiya qilishga mo'ljallangan qurilmadir, u masofadan operator yoki programmali boshqarish tizimi tomonidan boshqariladi.

1-jadval

Robotlarning funksional imkoniyatlari

Funksiyalar	Odamning funksional organlari	Robotdagi analog
Fikrlash	Markaziy nerv tizimi	Boshqarish tizimi
Tashqi muhit bilan aloqa	Sezish organlari	Sezish elementlari (datchiklar va sensorlar)
Ish va harakat	Qo'l, oyoq va h.k.	Manipulyatorlar va harakatlanish qurilmasi
Hayot ta'minoti	Qon aylanish va hazm qilish organlari	Energiya manbalari

Dastur nazorati - bu sanoat ob'ektlarida manipulyatorlarni boshqarish uchun ishlatiladigan eng oddiy boshqaruv tizimi. Bunday robotlarda hissiy qism yo'q, barcha harakatlar qat'iy ravishda o'rnatiladi va muntazam ravishda takrorlanadi.

Adaptiv boshqarish. Adaptiv boshqaruv robotlari sensorli qism bilan jihozlangan. Datchiklar tomonidan yuborilgan signallar tahlil qilinadi va natijalarga qarab, keyingi harakatlar to'g'risida qaror qabul qilinadi, harakatlarning keyingi bosqichiga o'tish va boshqalar.

Aqlli boshqaruv. Aqlli boshqaruv usuli sun'iy intellekt usullariga asoslangan. Bunday robotning misoli uzoqdan boshqariladigan minalarni tozalash mashinasi.

Arduino - bu unchalik katta bo'lmagan plata bo'lib o'zining protsessori (mikrokontrolleri) va xotirasiga ega bo'lgan qurilma hisoblanadi.

Arduinoning ko'plab turlari mavjud bo'lib bularga misol qilib: arduino uno, arduino mega va h.k larni olishimiz mumkin (2-jadval). Arduino robototexnika va elektronikiga qiziquvchi va izlanuvchi yoshlarga juda qo'l keladi chunki bu qurilmada kichik va katta bo'lgan dastur, algoritmlar yaratgan holda xar hil qurilmalar, robotlar va boshqa qiziq amaliyotlarni bajarsa bo'ladi.

HOZIRGI KUNDA ROBOTLARNING O'RNI

Buxoro davlat pedagogika instituti
“Texnologik ta’lim kafedrası” o‘qituvchisi
Rayimova Dilnavoz Dilmurodovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Axmadova Marjonabonu Anvar qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada robototexnikaning zamonaviy hayotdagi o‘rni, avtomatlashtirilgan mashinalarning turli sohalarda, ayniqsa tibbiyotda muhimligi va o‘ziga xos xususiyatlari. Robot yaratish uchun kerak bo‘ladigan zamonaviy intellektual qurilmalar haqida yoritilgan. Robotlarning hayotdagi alohida o‘rni haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Robot, sun‘iy intellekt, manipulyatorlar, adaptiv boshqarish, mikrokontrolleri, arduino, sensor, reflector, actuator.

ABSTRACT

In this article, the role of robotics in modern life, the importance and specific features of automated machines in various fields, especially in medicine. Describes the modern intelligent devices needed to create a robot. It's about the special place of robots in life.

Keywords: Robot, artificial intelligence, manipulators, adaptive control, microcontrollers, arduino, sensor, reflector, actuator.

KIRISH

Robototexnika taraqqiyoti uzoq istiqbolga ega. Agar biz ushbu sohaning tarixiga nazar tashlasak, robototexnika taraqqiyoti har yili tezlashayotganini tushunishimiz mumkin. Va avtomatlashtirilgan mashinalarning turli sohalarda, ayniqsa tibbiyotda muhimligini hisobga olsak, ularga qanday umidlar ishonish qiyinligini tasavvur qilish qiyin emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Robototexnika rivojlanish tarixi nisbatan yaqinda boshlanganiga qaramay, ushbu texnologiya sohasi juda yuqori darajaga ega. Dunyoning eng yaxshi olimlari robotlarning yangi turlarini - tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan nanorobotlardan tortib to zamonaviy sun‘iy aqlga ega mustaqil mashinalargacha yaratish ustida tinimsiz mehnat qilmoqdalar. Hozirgi vaqtda siz robototexnika sohasida qanday yuqori cho‘qqilarni zabt etishni tasavvur qilishingiz mumkin.

Robotlarning 3 turi aniqlandi:

- qat‘iy harakatlar dasturi bilan;
- inson operatori tomonidan boshqariladi;
- inson aralashuvisiz maqsadli (oqilona) harakat qiluvchi sun‘iy intellekt (ba‘zan integral deb ataladi) bilan.

Ko‘pgina zamonaviy robotlar (uchala nav ham) robotlarning manipulyatorlari bo‘lib, garchi boshqa turdagi robotlar mavjud bo‘lsa (masalan,

3. **Texnologiyalarni mahalliyashtirish** - Ko'plab texnologiyalar xorijiy standartlarga asoslangan bo'lib, ular mahalliy ta'lim sharoitlariga mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun texnologiyalarni mahalliyashtirish va milliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish talab qilinadi.

4. **Virtual va Kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalari** Tadqiqotlarda VR va AR texnologiyalarining ta'lim samaradorligini oshirishi ko'rsatilgan. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini interaktivlashtiradi, shu orqali o'quvchilarda ta'limga qiziqish uyg'otadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

5. **Moliyaviy va infratuzilma cheklovlari** - Raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish uchun zarur infratuzilma va moliyaviy ta'minot yetishmasligi dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Maxsus yordamchi texnologiyalar va VR/AR vositalari katta mablag' talab qilishi tufayli ko'pgina ta'lim muassasalari ularni joriy etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

6. **Maxfiylik va xavfsizlik masalalari** - Onlayn ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun, o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va raqamli xavfsizlik siyosatini kuchaytirish zarur.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar natijasida zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish samaradorligini oshirish mumkinligi aniqlandi. Ushbu texnologiyalar yordamida maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'lim jarayoni qiziqarli va qulay bo'lib, ular o'z ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim oladi. Ammo infratuzilma va moliyaviy ta'minot yetishmovchiligi, o'qituvchilar tayyorligi va maxfiylik masalalarini hal qilish lozim. Tahlillar asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish:** Raqamli texnologiyalarni joriy qilish uchun davlat va xususiy sektor tomonidan qo'shimcha mablag' ajratilishi zarur.

2. **O'qituvchilarni raqamli avodxonligini oshirish:** Pedagoglarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash va o'qitish dasturlarini kengaytirish zarur.

3. **Texnologiyalarni mahalliyashtirish:** Xorijiy texnologiyalarni milliy ehtiyojlarga moslashtirish va milliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish yo'nalishida qo'shimcha tadbirlar amalga oshirish lozim.

4. **Xavfsizlik choralari:** O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun raqamli xavfsizlik choralari kuchaytirish hamda ota-onalar va o'quvchilarga bu borada zarur tushuntirish ishlarini olib borish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oliver, M. (2021). *Inclusive Education and Digital Technology: Opportunities and Challenges*. London: Educational Review Press.
2. Ainscow, M., & Sandill, A. (2010). *Developing inclusive education systems: The role of organisational cultures and leadership*. *International Journal of Inclusive Education*, 14(4), 401-416.